

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Sirdaryo arxitektura va qurilish texnikumining
USTAVI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Ustav boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan Sirdaryo arxitektura va qurilish texnikumi (keyingi o'rinlarda texnikum deb yuritiladi)ning maqomi, asosiy maqsad va vazifalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Texnikum – Milliy malakalar ramkasining 3, 4 va 5 darajalariga mos keluvchi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan ta'lim tashkiloti hisoblanadi.

3. Texnikum o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining (keyingi o'rinlarda Vazirlik deb yuritiladi) buyruqlari, boshqa qonunchilik hujjatlari hamda ushbu Ustav asosida amalga oshiradi.

4. Texnikum Vazirlik tasarrufida faoliyat ko'rsatadi.

5. Texnikum oliy ta'lim tashkilotlariga biriktiriladi. Oliy ta'lim tashkilotlari texnikumning ta'lim jarayoniga o'quv-metodik hamda moddiy-texnik bazasini yaxshilashga ko'maklashadi.

6. Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha respublika kengashi tomonidan texnikumga respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalari kadrlar buyurtmachisi va sanoat hamkori sifatida biriktiriladi.

7. Texnikumni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hamda o'quvchilarni to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

Bunda, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikum, san'at va madaniyat yo'nalishidagi texnikum, shuningdek, xalqaro ta'lim dasturlari joriy qilinadigan texnikumni saqlash xarajatlari to'liq Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

8. Texnikumda boshlang'ich kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlash umumiy o'rta ta'lim tashkilotining joriy yilda 9-sinfini tamomlagan o'quvchilar uchun — davlat granti asosida, kamida umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan boshqa talabgorlar uchun — to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

Kamida umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar texnikumda o'rta va o'rta maxsus kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha davlat granti va to'lov-kontrakt asosida ta'lim oladilar.

9. Texnikum yuridik shaxs hisoblanib, o'zining mustaqil balansiga, alohida mol-mulkiga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan, nomi davlat tilida yozilgan muhrga, shtampga, davlat namunasidagi blankalarga, Iqtisodiyot va moliya vazirligining G'aznachilik xizmati qo'mitasi va uning hududiy bo'limlarida shaxsiy hisobvaraqlariga, shu jumladan, xorijiy valyutadagi va boshqa hisobvaraqlariga, rekvizitlarga ega bo'ladi. O'z nomidan shartnomalar tuzadi, mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarni amalga oshiradi, yuklangan majburiyatlarni bajaradi hamda sud, arbitraj organlarida da'vogar va javobgar bo'ladi.

10. Texnikumning rasmiy nomlanishi:

a) davlat tilida:

to'liq nomi: "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Sirdaryo arxitektura va qurilish texnikumi", qisqartirilgan nomi — "Sirdaryo arxitektura va qurilish texnikumi";

b) ingliz tilida:

to'liq nomi: "Syrdarya technicum of Architecture and Civil Engineering", qisqartirilgan nomi — "Syrdarya technicum of Architecture and Civil Engineering;

d) rus tilida:

to'liq nomi: "Сырдарьинский архитектурно-строительный техникум при Министерстве высшего образования, науки и инноваций", qisqartirilgan nomi — "Сырдарьинский архитектурно-строительный техникум".

11. Texnikumning joylashgan joyi (pochta manzili):, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Bog'ishamol mahalla fuqarolar yig'ini, O'zbekiston shox ko'chasi, 71-uy. Pochta indeksi 120204

2-bob. Texnikum faoliyatining asosiy maqsadi va vazifalari

12. Texnikum faoliyatining asosiy maqsadi - Mehnat bozorida raqobatbardosh, iqtisodiyot tarmoqlarida samarali ishlashga qodir, malakali kadrlar tayyorlash hamda kasbiy ta'lim dasturlarini joriy qilish orqali turli yoshdagi shaxslarning "Hayot davomida ta'lim olish" tamoyili asosida ta'lim olishga bo'lgan talablarini qondirishdir.

13. Quyidagilar texnikumning asosiy vazifalari hisoblanadi:

iqtisodiyot soha va tarmoqlarida talab yuqori bo'lgan tor doiradagi va sohaviy kasb va mutaxassisliklar bo'yicha tizimli fikrlash, ish yuritish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash ko'nikmalariga ega hamda xorijiy tillarni biladigan mutaxassislar tayyorlash;

ish beruvchilarning talab va takliflariga asosan kadrlarga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib, iqtisodiyot soha va tarmoqlari uchun zarur bo'lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda ushbu jarayonda hamkor ish beruvchi tashkilotlar faol ishtirok etishlar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;

egallagan kasb yoki mutaxassislik bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan, yuqori darajada sifatli bilim olishni va kasbiy tayyorgarlikni ta'minlash;

tanlab olingan kasb yoki mutaxassislik bo'yicha bir yoki bir necha kvalifikatsiyani egallash jarayonida o'quvchilarning kasbiy layoqat, ko'nikma va malakalarini oshirish;

mutaxassislarni tayyorlash tizimi va mazmunini jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat va zamonaviy innovatsion texnika yutuqlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish;

o'quvchilarda vatanparvarlik, milliy o'zlikni anglash, xalqning milliy, madaniy, tarixiy an'analariga hurmat, Vatan bilan g'ururlanish va iftixor tuyg'usini shakllantirish;

o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullaridan foydalangan holda kamol toptirish;

davlat ta'lim standartlari talablariga ko'ra o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan malaka va ko'nikmalarni o'quvchilar ongiga singdirish;

o'qituvchi, ta'lim oluvchilarning sog'lig'ini muhofaza qilish, sog'lom turmush tarzini joriy etish, ularning bilim olishi, turmushi va dam olishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish;

tegishli ta'lim darajalari bo'yicha kadrlar tayyorlash uchun zarur moddiy-texnika, o'quv-metodik bazani yaratish va o'quv jarayoniga yuqori ish tajribasiga ega bo'lgan amaliyotchi mutaxassislarni jalb etib borish.

14. Faoliyatning asosiy turlarini amalga oshirish doirasida texnikum quyidagi asosiy kasbiy ta'lim dasturlarini amalga oshirishi mumkin.

a) Kasbiy ta'lim tashkilotlarida umumta'lim tashkilotlarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda boshlang'ich kasbiy ta'lim umumta'lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda ta'lim dasturlarining davomiyligi 2 yildan iborat bo'ladi. Bunda, kadrlar tayyorlash kunduzgi va dual ta'lim shakllarida amalga oshiriladi.

b) Kasbiy ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich kasbiy (boshlang'ich professional yoki kasb-hunar) ta'lim ma'lumotga ega bo'lgan

shaxslardan shakllantirilgan guruhlar uchun boshlang'ich kasbiy ta'lim dasturlarida:

o'qishning normativ muddati kasblarning murakkabligidan kelib chiqqan holda ikki yilgacha bo'lgani holda o'quv jarayoni 22 – 94 hafta davom etishi zarur. Bunda, kadrlar tayyorlash kunduzgi, dual, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi;

ushbu ta'lim dasturida umumta'lim fanlarini o'qitilishiga yo'l qo'yilmaydi;

d) Kasbiy ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich kasbiy (boshlang'ich professional yoki kasb-hunar) ta'lim ma'lumotga ega bo'lgan shaxslardan shakllantirilgan guruhlar uchun o'rta kasbiy ta'lim dasturlarida:

o'qishning normativ muddati kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda ikki yilgacha bo'lgani holda o'quv jarayoni 22 – 94 hafta davom etishi zarur.

Kadrlar tayyorlash kunduzgi, dual, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi;

e) Kasbiy ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich, o'rta kasbiy (boshlang'ich professional yoki kasb-hunar) ta'lim ma'lumotga ega bo'lgan shaxslardan shakllantirilgan guruhlar uchun oliy ta'lim tashkilotlarining tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishlari dasturlari bilan integratsiyalashtirilgan o'rta maxsus kasbiy ta'lim dasturlarida.

o'qishning normativ muddati kamida 2 yil bo'lgan holda o'quv jarayoni kamida 94 hafta davom etishi zarur.

Kadrlar tayyorlash kunduzgi, dual, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida olib boriladi.

15. Texnikumda ro'yxati Vazirlik tomonidan tasdiqlanadigan kasb va mutaxassisliklar bo'yicha turli darajadagi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus kasbiy ta'lim dasturlarining o'zaro muvofiqligi va uzviyligi ta'minlangan holda yaxlit ta'lim dasturlari joriy etilishi mumkin.

16. Texnikumda qo'shimcha kasblar va mutaxassisliklar bo'yicha kvalifikatsiya va kompetensiyalarni egallash, jumladan, tegishli toifalar bo'yicha avtotransport vositalari hamda traktorlarni boshqarish bo'yicha milliy haydovchilik guvohnomalarini olish istagidagi aholining turli qatlamlari uchun o'qitish muddati 6 oydan oshmagan intensiv, shuningdek turli yoshdagi fuqarolar va ishsizlarni kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlikka o'qitish bo'yicha qo'shimcha o'quv kurslari tashkil etilishi mumkin.

3-bob. O'quv tarbiyaviy va ilmiy-metodik ishlarni tashkil etish

17. Texnikumda idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar o'quv-metodik rahbarlik qilish hamda bu sohada davlat siyosatini yuritish Vazirlik tomonidan amalga oshiriladi.

18. Texnikumda:

kechki va sirtqi ta'lim shaklida o'qish muddati va semestrlar davomiyligi Vazirlik tomonidan belgilangan me'yorlar asosida shakllantiriladi;

o'quvchilar o'qitish kurslari bo'yicha guruhlariga, o'qitish yo'nalishi bo'yicha esa bo'limlarga birlashtiriladi;

guruhlarda o'quvchilar soni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan me'yorlar asosida shakllantiriladi;

o'quv yilining boshlanishi, tugallanishi, haftalik yuklama, ta'tillarning muddati, davomiyligi, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayoni yakunlarini belgilash shakllari, amaliyot turlari va yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi hamda ta'lim jarayoniga tegishli boshqa talablar qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlangan o'quv rejalari va boshqa normativ hujjatlar asosida belgilanadi;

texnikumda barcha turdagi o'quv mashg'ulotlari davomiyligi tegishli normativ hujjatlar bilan belgilanadi;

texnikumda o'qitish kursi tugagandan keyin nazoratlarning yakuniy natijalari asosida o'quvchini navbatdagi kursga o'tkazish, kursda qoldirish, o'qishdan chetlashtirish to'g'risida qaror qabul qilinadi. O'quvchilarni kursdan kursga o'tkazish, o'qishdan chetlashtirish, kursda qoldirish pedagogik kengashning qarori va texnikum direktorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi;

o'quvchilarni texnikumda o'qitish ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan o'zaro hamkorligi asosida quyidagicha amalga oshiriladi:

texnikum o'quvchilarining muassasa va tashkilotlarda tizimli asosda ishlab chiqarish amaliyot o'tashi uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, ish beruvchilarni o'quv jarayoniga foydalaniladigan o'quv-normativ hujjatlarni ishlab chiqishga jalb etish;

bevosita ishlab chiqarishni modernizatsiyalash jarayonlarida ishtirok etishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlash maqsadida o'quv jarayoniga innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni qo'llab, texnikum hamda muassasa va tashkilotlarning o'zaro yaqin hamkorligini ta'minlash;

o'quvchilarning o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti belgilangan normativ hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi;

o'quv reja va fan dasturlarining barcha talablarini bajargan o'quvchi texnikum pedagogik kengashining qarori va direktorning buyrug'i bilan Yakuniy davlat attestatsiyasi imtihonlariga qo'yiladi. Yakuniy davlat attestatsiyasi belgilangan normativ hujjatlarga muvofiq tartibga solinadi;

Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi qarori bilan ta'lim olgan mutaxassisligi (kasbi) va egallagan malakasi (malakalari) ko'rsatilgan holda davlat namunasidagi diplom beriladi;

Diplomga o'zlashtirilgan fanlar ro'yxati, o'tilgan soatlar hajmi, ularni o'zlashtirish darajasi (baholar) va Yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari ko'rsatilgan qo'shimcha varaq ilova qilinadi;

texnikumni tamomlaganlik to'g'risidagi diplom egallangan bilimlarni mehnat faoliyatida amalga oshirish huquqini beradi;

o'quv jarayoni shakli ilmiy asoslangan innovatsion vosita va o'qitish usullarini tanlash asosida tashkil etiladi;

o'quv jarayoniga yo'nalishlar bo'yicha olim va mutaxassislar jalb qilinadi. Texnikumda o'qituvchilarning o'quv-metodik va ilmiy ijod qilishlari uchun sharoit yaratiladi va rag'batlantiriladi.

19. Texnikumda ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar umumbashariy qadriyatlarga va milliy an'analarga asoslanadi.

Texnikumda:

vatanparvarlik va milliy mustaqillik g'oyalari sadoqatli hamda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishga qodir shaxsni tarbiyalash o'quv jarayoni bilan uzviy ravishda oila, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa jamoat tashkilotlari ishtirokida amalga oshiriladi;

yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy-madaniy, tarixiy an'analari, urf-odatlariga asoslangan tarbiyaviy ishlarning turli shakllarini ommalashtirish maqsadida texnikumning veb-sayti va ijtimoiy sahifalarini yaratish yo'lga qo'yiladi;

o'quvchilarning o'z intellektual darajasini oshirishlari uchun badiiy adabiyotlarni o'qishga qiziqtirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir targ'ibot ishlarini olib borish yangi adabiy kitoblarning taqdimotini uyushtirish va targ'ib qilish orqali amalga oshiriladi;

texnikum o'quvchilarida muloqot madaniyatining zamonaviy shakllarini yaratish maqsadida tegishli mutaxassislarni jalb qilgan holda bahs-munozaralar va davra suhbatlari uyushtiriladi;

chet tillaridagi badiiy adabiyotlar, ilmiy materiallarni o'rganish va ta'lim-tarbiyaga tatbiq etish maqsadida videoroliklar, bukletlar, flayerlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi;

yosh avlodni ma'naviy-axloqiy, milliy g'oyalarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mustaqil dunyoqarashga va fikrlashga ega bo'lgan ma'naviy boy va har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishda milliy-madaniy, tarixiy an'analarga, urf-odatlar hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan tarbiyaviy ishlarning turli xil shakllari qo'llaniladi;

o'quvchilarda kasbiy ta'lim tashkiloti va tanlagan kasbni egallash bo'yicha berilgan imkoniyatlardan g'ururlanish hissini oshirishga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqiladi;

o'quv yilining birinchi kuni vazirlik va uning hududiy boshqarmasi, hokimiyat, oliy ta'lim muassasasi va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirokida o'quvchilarning tantanali saflanishi, O'zbekiston Respublikasi bayrog'ini olib chiqish, Davlat madhiyasini ijro etish bilan boshlanadi va belgilangan tadbir asosida davom ettiriladi;

birinchi mashg'ulot O'zbekiston Respublikasining milliy mustaqillik g'oyalariga bag'ishlanadi.

Texnikumda manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda o'quvchilar hamda ularning ota-onalari ishtirokida yoshlarga oid muhim masalalarni muhokama etish uchun muntazam ravishda uchrashuvlar o'tkazib boriladi.

4-bob. Kasbiy ta'lim tashkilotining tuzilishi

20. Texnikum shtatlari jadvali amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqiladi, tasdiqlanadi hamda ro'yxatdan o'tkaziladi.

21. Texnikumda pedagogik kengash, metodik kengash, ota-onalar kengashi, Jamoatchilik kengashi tuziladi va faoliyat yuritadi.

22. Texnikum faoliyatining asosiy masalalarini ko'rib chiqish uchun texnikum pedagogik kengashi (keyingi o'rinlarda — Kengash) tashkil etiladi. Kengash to'g'risidagi nizom va uning ish rejasi Kengash yig'ilishida tasdiqlanadi.

Kengash tarkibi direktor tomonidan tasdiqlanadi. Kengash tarkibiga, direktor o'rinbosarlari, kotib, pedagog kadrlar hamda texnikum birlashtirilgan oliy ta'lim tashkiloti vakillari kiradi.

Kengash qarorlarining ijrosi direktor va uning o'rinbosarlari tomonidan ta'minlanadi.

23. Kengashning vakolatlariga quyidagilar kiradi:

texnikum faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Vazirlik hamda tegishli vazirlik, idora va tashkilotlarining buyruqlari, Sirdaryo viloyati oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasining ko'rsatmalari va topshiriqlari ijrosi ta'minlanishini tashkil qilish;

texnikumning yillik ish rejasi va boshqa rejalarni tasdiqlash;

budjetdan tashqari mablag'lar sarf-xarajati hisobotlarini ko'rib chiqish;

texnikum pedagogik jamoasining faoliyatini o'quvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini ta'minlashga, o'quvchilarga ta'lim berish sifatini oshirishga yo'naltirish;

oliy ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda o'quv-metodik jarayonni tashkil etish, moddiy-texnik bazadan unumli foydalanish masalalarini ko'rib chiqish;

texnikum faoliyati yoʻnalishlari boʻyicha axborotlar va hisobotlarni eshitish, taʼlim tashkilotining sanitariya-gigienik holati, yongʻinga qarshi amalga oshiriladigan ishlar, mehnatni muhofaza qilish, oʻquvchilarning sogʻligʻi va hayotiga oid hamda boshqa masalalarni muhokama qilish va qaror qabul qilish;

texnikum guruh murabbiylari faoliyati toʻgʻrisidagi axborotlarni eshitish;

qabul komissiyasining texnikumga oʻquvchilarni qabul qilish yuzasidan hisobotini eshitish;

oʻquvchilarga taʼlim berishda oʻqitishning ilgʻor pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni tatbiq etish choralari koʻrish;

oʻquvchilarni yuksak maʼnaviy-axloqiy, umuminsoniy va milliy ruhda, oʻz Vatani, xalqini ardoqlovchi, tinchlik va barqarorlikka qaratilgan milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish va joriy etish;

texnikumda oʻquv-tarbiya jarayonini tashkil etish va taʼlim samaradorligini oshirish boʻyicha zarur shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qarorlar qabul qilish;

oʻquvchilarni kursdan kursga oʻtkazish, kursda qoldirish, chetlashtirish, oʻqishga tiklash, bitiruvchilarga oʻqishni tamomlaganlik toʻgʻrisidagi davlat namunasidagi hujjatlar berish masalalarini koʻrib chiqish;

yuqori malakali pedagoglarning ish tajribasini oʻrganish va ommalashtirish, ularni davlat mukofotlariga tavsiya etish, yosh pedagog oʻqituvchilarga metodik yordam koʻrsatish ishlarini tashkil etish;

pedagog kadrlarga dars soatlari taqsimotlarini muhokama qilish va guruh rahbarlari hamda ishlab chiqarish taʼlimi ustalarini guruhlarga biriktirish masalalarini koʻrib chiqish

oʻz vakolati doirasida ichki hujjatlarni tasdiqlash va ularning bajarilishini nazorat qilish;

chin yetim, yetim, kam taʼminlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj oʻquvchilarni har tomonlama ijtimoiy himoya qilish masalalarini koʻrib chiqish;

direktor oʻrinbosarlari, tarkibiy boʻlinma rahbarlarining hisobotlarini eshitish.

Kengash texnikum faoliyatiga taalluqli boʻlgan boshqa muhim masalalarni ham koʻrib chiqish huquqiga ega.

24. Texnikum tarkibida kasaba uyushmasi, xotin-qizlar va yoshlar masalalari boʻyicha boshlangʻich tashkilot, murabbiylar kengashi va taʼlim-tarbiya jarayoniga daxldor boʻlgan boshqa jamoat tuzilmalari tashkil etiladi.

25. Texnikumda kafedralar va tegishli oliy taʼlim tashkilotlarining kafedra filiallari tashkil etilishi mumkin.

Tashkil etilgan kafedralar ular faoliyati toʻgʻrisidagi nizomlar bilan tartibga solinadi.

26. Texnikumning pedagog kadrlari va tegishli oliy ta'lim muassasasi kafedralarining professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda ta'lim sifatini oshirish borasida hamkorlik yo'lga qo'yiladi.

27. Texnikum direktori ta'lim tashkilotidagi o'quv-tarbiya va metodik ishlar samaradorligi bo'yicha vazirlik yoki uning hududiy boshqarma yig'ilishlarida hisobot beradi.

5-bob. Kasbiy ta'lim tashkilotini boshqarish

28. Texnikumni boshqarish direktor tomonidan amalga oshiriladi.

Texnikum direktori va uning o'rinbosarlari belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Texnikum direktori:

texnikum faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi va texnikumga yuklangan vazifalar bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

o'rinbosarlar vakolatlarini belgilaydi, ular o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi, texnikumning tarkibiy bo'linmasi rahbarlari vakolatlarini, ularning faoliyati uchun javobgarligini belgilaydi;

texnikum faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va uning hududiy boshqarmalari, buyruqlari va ko'rsatmalari amalga oshirilishini tashkil etadi;

qonunchilik hujjatlariga asosan texnikum nomidan ish olib boradi, barcha tashkilotlarda uning vakili sifatida qatnashadi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalar beradi;

texnikum tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

texnikum o'qituvchi va xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;

texnikum tarkibiy bo'linmalari rahbarlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi;

texnikum pedagogik xodimlari va o'quvchilari uchun bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

texnikumning tashkiliy va moliyaviy faoliyati masalalarini hal qiladi;

texnikumning mol-mulkiga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish bo'yicha belgilangan tartibda qarorlar qabul qiladi;

texnikumning shtat jadvallari va xarajatlar smetasini tasdiqlaydi;

texnikum o'qituvchilari va boshqa xodimlarini rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal etadi, o'rnak ko'rsatgan texnikum xodimlariga unvonlar berish va davlat mukofotlari bilan taqdirlash to'g'risida takliflar kiritadi.

texnikum direktori qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

6-bob. Pedagog kadrlar va o'quv-tarbiyaviy xodimlar

29. Texnikumda pedagog kadrlar, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar faoliyat yuritadi.

30. O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq pedagogik faoliyat bilan bog'liq lavozimlar ro'yxati Vazirlik tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu tasdiqlangan ro'yxatdagi xodimlar pedagog kadrlar deb yuritiladi.

31. Pedagogik oliy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslarga qayta tayyorlash kurslaridan o'tganidan keyin ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi berilishi mumkin.

Zarurat bo'lganda texnikum ishlab chiqarish ta'limi ustalarini, shuningdek tegishli bilim hamda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan, oliy ma'lumoti bo'lmagan boshqa mutaxassislarni amaliy va qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazish uchun jalb etishi mumkin.

Ishlab chiqarish ta'limi ustalari qayta tayyorlash kurslaridan o'tmasdan texnikumda pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishga haqli.

O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq pedagoglik faoliyati bilan shug'ullanishi taqiqlangan shaxslarning texnikumda pedagog sifatida faoliyat olib borishiga yo'l qo'yilmaydi.

32. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning mutaxassislari o'rindoshlik asosida yoki qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda soatbay ish haqi to'lash shartlari asosida pedagogik faoliyatga jalb etilishi mumkin.

33. Pedagoglarning kasbiy darajasiga doir talablar Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatorida hamda pedagogning kasbiy standartlarida belgilanadi.

Pedagog, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarning huquq va majburiyatlari texnikumning ichki tartib-qoidalari, odob-axloq qoidalari va lavozim yo'riqnomalarida belgilanadi.

34. Texnikumning o'qituvchi va boshqa xodimlari tarkibini davriy attestatsiyadan o'tkazish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

7-bob. Jamoat tashkilotlari

35. Texnikumda o'quvchi, pedagog xodim, ma'muriy va yordamchi xodimlarni birlashtiruvchi jamoat tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi. Jamoat tashkilotlarining faoliyati amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

36. Texnikum o'quvchilarining yoshlar ishlari bo'yicha boshlang'ich tashkiloti jamoatchilik asosida tashkil etilib, yoshlarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi hamda oshkoralik va adolat tamoyillari asosida ish yuritadi.

37. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonunida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmasi qo'mitasi texnikum xodimlari va o'quvchilarining ko'ngilli jamoat birlashmasi sifatida e'tirof etiladi.

38. Texnikumda xodimlar o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida Kasaba uyushmasi qo'mitasi kasaba uyushmalari to'g'risidagi va boshqa qonunchilik hujjatlariga asosan ish ko'radi.

8-bob. Texnikumning huquq va majburiyatlari

39. Texnikum:

O'zbekiston Respublikasi hududida o'z nomidan yuridik va jismoniy shaxslar bilan vakolati doirasida shartnomalar va normativ-hujjatlar tuzish, jumladan mahalliy va xorijiy ish beruvchilar bilan to'lov-kontrakt asosida kadrlar tayyorlash va qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish;

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan va ushbu Ustavga zid bo'lmagan faoliyatni amalga oshirish;

ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish maqsadida o'qituvchilar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida tanlovlar tashkil etish;

respublika iqtisodiyoti, xo'jalik va xizmat ko'rsatish sohasida mutaxassislariga bo'lgan talab va real ehtiyojlar asosida belgilangan tartibda tegishli mutaxassislar tayyorlovchi qo'shimcha yo'nalishlar, shartnoma asosida kasbga tayyorlovchi qisqa muddatli o'quv kurslari ochish;

belgilangan tartibda mulkni ijaraga oluvchi va ijaraga beruvchi sifatida faoliyat yuritish hamda bo'sh turgan mulkini Vazirlik ruxsati asosida ijaraga berish;

to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalardan tushgan mablag'larni texnikumning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga va ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy o'quv-texnik vositalar, mebellar bilan ta'minlashga, texnikum

xodimlarini ijtimoiy himoyalashga va ularning faoliyat samaradorligini oshirishni rag'batlantirishga sarflash huquqiga ega.

Texnikum qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

40. Texnikum:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyruqlari, boshqa qonunchilik hujjatlari hamda ushbu Ustavda belgilangan vazifalarni bajarishga;

davlat ta'lim standartlari, malaka talabi, o'quv reja va fan dasturlari asosida yuqori sifatli kasbiy ta'limni berishga;

texnikum axborot-kutubxona fondini umumiy o'quvchilar sonini hisobga olgan holda zamonaviy talabga javob beradigan darsliklar, o'quv qo'llanmalar va o'qitish materiallari to'plamlari, shuningdek, badiiy adabiyotlar bilan yetarli darajada muntazam ravishda to'ldirib borishni ta'minlash hamda o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarini joriy etishga;

texnikum o'qituvchilari malakasini oshirish, tajriba almashinuvini tashkil etish va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga;

ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilishga;

pedagogik faoliyatning sifati, ijtimoiy maqomi, nufuzi va obro'-e'tiborini oshirish borasida faoliyat ko'rsatishga;

mehnat muhofazasi talablariga javob beradigan ta'lim-tarbiya va mehnat sharoitlarini yaratishga majbur.

Texnikum qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham olishi mumkin.

9-bob. Ta'lim oluvchilar

41. Texnikumga o'qishga qabul qilingan fuqaro ushbu kasbiy ta'lim tashkiloti o'quvchisi hisoblanadi.

42. O'qishda erishgan yutuqlari, o'quv-ishlab chiqarish, ijodiy faoliyat va texnikumning boshqa ishlarida faol qatnashgan o'quvchilarga moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning turli xil shakllari qo'llaniladi.

43. Texnikum o'quvchilari:

Kasbiy ta'lim tashkiloti faoliyatiga doir masalalarni muhokama va hal etishda bevosita yoki bilvosita (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlari orqali) ishtirok etish;

belgilangan tartibda kasbiy ta'lim tashkilotlari ma'muriyatining buyruqlari ustidan shikoyat qilish;

ta'lim dasturlari bo'yicha ta'limni davom ettirishini to'xtatish bo'yicha kasbiy ta'lim tashkiloti rahbariyatiga murojaat qilish;

axborot-kutubxona, kasbiy ta'lim tashkilotining o'quv, ijtimoiy, davolash va boshqa bo'linmalari xizmatlaridan kasbiy ta'lim tashkiloti ustavida belgilangan tartibda bepul foydalanish;

kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan turli ko'rik tanlovlarda belgilangan tartibda ishtirok etish;

ish beruvchilar tomonidan tavsiya qilingan ish joylarida ishlash bo'yicha murojaat qilish;

ta'lim olishda kasbiy ta'lim dasturlarida va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan huquqlardan foydalanish huquqiga ega.

Texnikum o'quvchilari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

44. Texnikum o'quvchilari:

Davlat ta'lim standartlarida belgilangan talablarni o'quvchilar belgilangan muddatlarda bajarishi hamda bilim va ko'nikmalarni egallashga;

uzrsiz sabablarga ko'ra dars mashg'ulotlarini qoldirmaslik;

ushbu Ustavga, Texnikumning ichki tartib-qoidalariga, odob-axloq qoidalariga hamda o'quv intizomiga rioya qilishga;

texnikum binolari va uning mol-mulkini asrab-avaylashga;

to'lov-kontrakt bo'yicha majburiyatlarni o'z vaqtida bajarishga;

kasbiy ta'lim tashkiloti hududida uyali telefonlardan foydalanishni tartibga soluvchi tegishli ichki tartiblarga rioya qilishga majburdir.

Texnikum o'quvchilari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham olishi mumkin.

10-bob. Texnikumni moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minoti

45. Texnikumning faoliyatini moliyalashtirish belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan va tasdiqlangan xarajatlar smetalariga muvofiq amalga oshiriladi.

46. Texnikum o'z ustavida belgilangan maqsadlarga muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin.

47. Davlat Texnikumi faoliyatini moliyalashtirish quyidagi manbalar hisobidan amalga oshiriladi:

o'quvchilarni davlat granti va to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar;

Texnikumning tadbirkorlik faoliyatidan, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan shartnoma asosida pulli xizmat ko'rsatish, bino va inshootlarni, jihoz va anjomlarni ijaraga berishdan olingan daromadlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning qonun bilan taqiqlanmagan homiylik xayriyalari, mahalliy hamda xalqaro tashkilotlarning grantlari;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

48. Texnikum shtatidagi xodimlar soni namunaviy shtatlariga muvofiq belgilanadi.

Texnikumining namunaviy shtatlari O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

49. Texnikum o'quvchisining kasbiy va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, budjetdan tashqari mablag' ishlab topish maqsadida aholiga pullik xizmat ko'rsatish bo'yicha turli sohalar bilan bog'liq ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin.

50. Qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan faoliyatdan olingan daromad hisobiga sotib olingan mol-mulk texnikumning mol-mulki tarkibiga kiritiladi.

51. Texnikumning mol-mulki va pul mablag'lari sarflanishi uchun bevosita uning rahbari javobgar hisoblanadi.

52. Texnikum tomonidan qonunchilik hujjatlariga muvofiq moliyaviy va statistik hisobot yuritiladi.

53. Texnikum xodimlarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish hamda ish haqiga ustamalar qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

54. Texnikumning moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish qonunchilik hujjatlariga muvofiq vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

55. Texnikumni moliyalashtirish viloyat budjetidan amalga oshiriladi. Halqaro ta'lim dasturlari joriy qilingan texnikum bundan mustasno.

11-bob. Qayta tashkil etish va tugatish

56. Texnikumni qayta tashkil etish yoki tugatish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.